XALQ DEPUTATLARI FORISH TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 4-aprel VII-20-32-3-53-K/26 Forish tumani

2026-yilda Forish tumani bo‘yicha “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari Forish tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-xatboshi “v”-bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. 2026-yil uchun Forish tumani hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Forish tumani hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Uzoqov, Forish tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i v.b. M.Kuvatov bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Botirov Bobir zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan uch oy o‘tib kuchga kiradi.

Kengash raisi **KARIMOV BOTIR NARINOVICH**

Xalq deputatlari Forish tumani
Kengashining
2026-yil 4-apreldagi
VII-20-32-3-53-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Forish tumani hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

Yig‘im turi	**Bir oyga (so‘mda)**		
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	***20 foizgacha oshirish mumkin***	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori**
“Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi	300 000	*10 foizga*	330 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	*20 foizga*	180 000